

1. O'qituvchi darsning boshida aniq va tushunarli tarzda dars maqsadini bayon qiladi. Eng muhimi nimaligini , baholashda nimaga e'tibor berishini tushuntiradi . Bunda o'qituvchi " Ta'lim samaradorligini ta'minlash" kompetensiya sohasiga oid qaysi mehnat harakatini amalga oshiradi?
 - A) Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilaydi**
 - B) Ta'lim jarayonini qo'llab quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKT dan foydalanish
 - C) O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish
 - D) O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish

2. O'qituvchi darsning boshida aniq va tushunarli tarzda dars maqsadini bayon qiladi. Eng muhimi nimaligini , baholashda nimaga e'tibor berishini tushuntiradi . Bunda o'qituvchi " Ta'lim samaradorligini ta'minlash" kompetensiya sohasiga oid qaysi mehnat harakatini amalga oshiradi?
 - A) Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilaydi**
 - B) Ta'lim jarayonini qo'llab quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKT dan foydalanish
 - C) O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish
 - D) O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish

3. Abu Nasr Forobiyning «O'qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur», degan fikrlari hozirgi kunda nutqning qaysi xususiyatiga to'g'ri keladi?
 - A) Nutqning to'g'riligi va ravonligi
 - B) Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi**
 - C) Nutqning mantiqiyligi
 - D) Nutqning tozaligi va ifodaliligi

Nutqning to'g'riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda ikkita jihatga e'tibor beriladi: urg'u va grammatik normalarga amal qilinishi.

Urg'u – so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

Grammatik norma – nutqning mazmundorligini, ma'noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi, mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig'indisidir.

Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi – mazmundor nutqning tinglovchiga ta'sir etish omilidir. O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqining aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniqlik, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasini mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz eta olishi talab qilinadi.

Nutqning mantiqiyli – nutqning mantiqiy bo'lishi, eng avvalo o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanishi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchur bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan dalolat beradi. O'quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lish kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan o'qituvchi nutqining mantiqiyiligiga putur etadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (*masalan, xulosa qilil aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo*). Demak, o'qituvchi nutqining mantiqiyli deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi – O'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O'qituvchilarning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy ti

4. O'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni tushuntirdi. Dars yakunida o'quvchilarning mavzuni qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida Bu qayerdan keldi? Bu nima? Bu nega aynan shunday bo'ldi? Mazmunida savollar berdi. !!Quyida Blum taksonomiyasining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A) Tushunish

- B) Qo'llash
- C) Bilish
- D) Tahlil

Izoh: O'quvchilar tushunganlari asosida bu savollarga javob bera olishadi.

5. O'quvchilar darsdagi mavzu yuzasidan topshiriqlardagi xato va kamchiliklarni ko'rib chiqishdi. Bu holat Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga mos keladi?

- A) Bilim
- B) Tushunish
- C) Qo'llash

D) Tahlil

Izoh: O'quvchilar topshiriqni tahlil qilib undagi xato va kamchiliklarni aniqlashadi

6. O'qituvchi o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan nizoni bosiqlik bilan xushmuomalalik bilan yumshoq ohangda bartaraf etdi. Quyida o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi?

A) Ishontirish

B) Iltimos

C) Talab

D) Suhbat

Izoh: ✓Suhbat - nizoga kirishuvchi ikki tomon gaplashib nizoni hal qiladi

✓Iltimos - yumshoq tushunarli tonda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi

✓Ishontirish - nizoli tomonlarning harakatlari xato ekanligi aniq faktlar asosida aytiladi

✓Talab- nizo to'xtatilmasa qattiqroq chora ko'rilishi aytiladi

7. Maktabning yuqori sinf yigitlari anchagina tortishib qolishdi. Maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar boyicha direktor o'rinbosari ularni janjal ustida ushlab oldi. O'quvchilar bilan alohida suhbat o'tkazgach agar bu hol yana takrorlansa ularga ijodiy chora ko'rilishini tayinladi. Quyida o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi

A) Ishontirish

B) Iltimos

C) Suhbat

D) Talab

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan ikki o'quvchi bir -birlari bilan kelisha olmasdan qattiq tortishib qolishdi. Ular hech kelisha olishmaganini ko'rgan o'qituvchi ularning har biri bilan alohida gaplashib qo'yish orqali nizoni hal qildi. Quyida o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi?

A) Ishontirish

B) Iltimos

C) Suhbat

D) Talab

9. Qaysi o'qitish usuli quyidagi afzallik va kamchilikka ega?

Afzalligi: doimo mavjud bo'lganligi tufayli o'quvchi xohlagan payti qayta ko'rib chiqishi, mustahkamlashi mumkin.

Kamchiligi: o'qituvchi va jamoa bo'lib ishlanmaydi.

A) An'anaviy dars

B) Interaktiv usul

C) Onlayn (masofaviy) o'qitish

D) O'yinli ta'lim

Izoh:

Onlayn yoki masofaviy ta'limda darslar odatda oldindan yozib olingan bo'ladi yoki platformada saqlanadi. Bu esa o'quvchilarga darslarni istalgan vaqtda qayta ko'rib chiqish, mustahkamlash imkonini beradi. Biroq, bu usulda o'qituvchining bevosita rahbarligi va sinfdoshlar bilan jonli muloqot yetishmaydi, bu esa jamoaviy

o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin

10. O'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar bilan ishlashni va zarur xulosalar chiqarishni topshirdi. Bu topshiriq Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga tegishli?

- A) Bilish
- B) Tushunish
- C) Qo'llash
- D) Tahlil**

Izoh:

Tahlil bosqichi o'quvchilardan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni qismlarga ajratish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash va xulosalar chiqarishni talab qiladi. Qo'shimcha ma'lumot bilan ishlash va zarur xulosalarni chiqarish aynan shu bosqichga mos keladi.

11. Quyida qaysi dars usulining Afzalliklari va kamchiliklari berilgan?

Afzalliklari:

Ko'p miqdorda axborotni tez yetkazish mumkin. O'qituvchi mavzuni aniq va tizimli tushuntiradi.

Kamchiliklari:

O'quvchilar passiv bo'ladi. Diqqatni uzoq saqlash qiyin. Mustaqil fikrlash kam rivojlanadi.

- A) Suhbat
- B) Og'izaki bayon ma'ruza**
- C) amaliy metod
- D) Onlayn masofaviy ta'lim

12. Quyida qaysi dars usulining afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot berilgan

Afzalliklari:

O'quvchilar faol qatnashadi. Fikr almashish orqali mavzu chuqurroq o'zlashtiriladi.

Kamchiliklari:

Vaqt ko'p talab etiladi. Har doim ham barcha o'quvchilar faollasha olmaydi.

- A) Ma'ruza
- B) Suhbat**
- C) Amaliy
- D) Muammoli usul

13. Quyida qaysi dars usulining afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumot berilgan

Afzalliklari:

Nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlanadi. Ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi.

Kamchiliklari:

Ko'p hollarda moddiy texnik baza talab etiladi. Tayyorlov vaqti uzoq bo'lishi mumkin.

- A) Suhbat
- B) Muammoli vaziyat**

C) Ko'rgazmali

D) Amaliy

14. Nizoning eng yuqori bosqichida qanday yo'l tutiladi?

A) Ma'muriy organlarga shikoyat qilish

B) Do'stona kelishuvga erishish

C) Vositachilik xizmatidan foydalanish

D) Sud tartibida hal qilish

Izoh:

Nizo (kelishmovchilik)larni hal qilishning eng yuqori va yakuniy bosqichi bu – sudga murojaat qilishdir. Agar tomonlar o'zaro kelisha olmasa, ma'muriy tartibda yoki vositachilik orqali muammo hal bo'lmasa, u holda sud tartibida hal etish yo'li tanlanadi. Sud qarorlari majburiy kuchga ega va ijro etilishi lozim.

15. Quyidagilardan qaysi biri pedagogik muloqot uchun xos bo'lgan xususiyatlar sirasiga kiradi?

A) Buyruqbozlik, nazorat va jazolashga asoslangan yondashuv

B) Biryozlama axborot uzatish va talablar qo'yish

C) O'zaro hurmat, hamkorlik, ochiqlik va ishonchga asoslangan muloqot

D) Faqat o'qituvchining fikrini ustun qo'yish

16. O'qituvchi mavzuni tushuntirishda mavzu yuzasidan rasmlarni doskaga ilib qo'ydi. O'qituvchi bu vaziyatda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi.

A) Suhbat

B) Tasvir

C) Namoyish

D) Amaliy

Izoh:

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari - chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

17. O'qituvchi "O'tgan kunlar"asari asosida o'quvchilarning ma'lum qismigaga slaydtayyorlashni, boshqasiga asar voqealarini real hayotga bog'lashni, qolganlarga asar asosida rasm chizishni topshirdi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga topshiriq berishda qanday qanday yondoshdi?

A) O'quvchilarni guruhga ajratib oldi

B) O'quvchilarga dars uchun kerakli ko'rgazmalar tayyorlashni buyurdi

C) Qobiliyatidan kelib chiqib vazifalarni taqsimladi

D) O'quvchilarni bo'sh vaqtini umumli ishga sarfladi

Izoh: O'qituvchi har bir o'quvchiga ularning qobiliyati (masalan, texnik, ijodiy, tahliliy)ga mos topshiriqlar bergan: slayd tayyorlash (texnik va tahliliy qobiliyat), real hayotga bog'lash (tahliliy va tanqidiy fikrlash), rasm

chizish (ijodiy qobiliyat). Bu esa shuni ko'rsatadiki, u qobiliyatdan kelib chiqib yondashgan.

18. O'qituvchi doskaga rasm ildi.Unda bolaning poyabzali yirtiq,kiyimlari kir,ozg'in(uzun ta'riflangan). O'quvchilarning emotsiyasini,psixologiyasini bilish uchun nimadan foydalandi.

A)Tasvir

B)Amaliy

C)Hikoya

D)Namoyish

Izoh: O'qituvchi bolaning holatini rasm orqali ko'rsatgan va bu orqali o'quvchilarning emotsiyasi hamda psixologik reaksiyasini kuzatmoqchi bo'lgan. Bu — tasvir vositasida ta'sir o'tkazishdir. Rasm orqali ko'rsatilgan holat — bu vizual tasvirlash usuli hisoblanadi.

19. Ota-ona farzandiga faqat akademik bilimlar yetarli ekanini, boshqa hech narsa kerak emasligini aytdi. Sinf rahbari esa ota-onaga tadbirda farzandining nutqi ravon bo'lishi, sahnada o'zini erkin tuta olishini kuzatish zarurligini aytdi.

Sinf rahbari bu yerda qanday usuldan foydalangan?

A) Ko'rsatma berish usuli

B) Namuna ko'rsatish usuli

C) Ishontirish usuli

D) Nazorat usuli

Izoh: Sinf rahbari tadbir orqali bolada faqat akademik bilim emas, balki nutq, ijtimoiy ko'nikmalar ham muhimligini ko'rsatishga urinyapti. Bu esa ota-onani pedagogik nuqtai nazardan ishontirishga qaratilgan.

!Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan asosiy ta'sir o'tkazish usullari haqida ma'lumot beraman:

!1. Ishontirish usuli

Bu usul orqali pedagog (yoki sinf rahbari) o'quvchilar yoki ota-onalarning fikrini o'zgartirishga, ularni biror narsaga ishontirishga harakat qiladi. Mantiqiy fikrlar, hayotiy misollar, dalillar orqali yo'lga qo'yiladi. Masalan: Sinf rahbari ota-onaga "farzandingiz sahnada nutq so'zlasa, bu uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi" deb tushuntirishi.

!2. Ko'rsatma berish usuli

Bu usulda pedagog o'quvchiga aniq nima qilish kerakligini aytadi. Bu ko'proq tartib, xatti-harakatni nazorat qilish uchun ishlatiladi.

Masalan: "Kitobni oching, 25-betni o'qing."

!3. Namuna ko'rsatish usuli

Bu usul orqali pedagog o'quvchilarga namuna bo'la oladigan harakat yoki shaxsni ko'rsatadi. O'quvchi o'sha namunadan ilhomlanadi yoki o'rnak oladi.

Masalan: Ilg'or o'quvchining daftari, chiroyli ifodalangan og'zaki javoblar namuna sifatida ko'rsatiladi.

!4. Nazorat usuli

Bu usul orqali pedagog o'quvchilar ustidan kuzatuv, tahlil va baholash ishlarini olib boradi. Intizom, ishtirok, topshiriq bajarilishi nazorat qilinadi.

Masalan: Uy vazifalarini tekshirish, darsdagi faoliyatni baholash.